

SHAXSIY YOZISHMALARDA VARVAR SO'ZLARNING QO'LLANILISHI VA LINGVISTIK EKSPERTIZA

Abdurayimova Durdona Samat qizi

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Lingvistika yo'nalishi
magistranti. E-mail: Abdurayimovadurdona21@gmail.com

+998919614267

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7183970>

Annotatsiya.. Shaxsiy yozishmalardagi varvarizmlarning turlari va qaysi tildan o'zlashgani va shaxsiy yozishmalarda qo'llanilgan varvar so'zlar gumondorning jinoyatchi yoki ayibsiz ekanligini aniqlash maqsadida tadqiq qilindi. Kunumizda qo'llanilyotgan varvar so'zlar o'rganildi.

Kalit so'zlar. Linvistik ekspertiza, varvar izm, shaxsiy yozishma, gumondor, jinoyatchi.

Shaxsiy yozishmalarni o'rganish jinoyat olami yoki kundalik hayotimizdagi jumboqlarni yechish uchun xizmat qiladi. Ijtimoiy va jinoiy jarayonlarni tahlilga tortishda lingvistik ekspertizaning o'rni ahamiyatlidir. Lingvistik ekspertizaning eng muhim o'rganish obyektlaridan biri bu - shaxsiy yozishmalar hisoblanadi. Shaxsiy yozishmalarda varvar so'zlar tadqiqi boshqa tadqiqotlar kabi muhim ahamiyatga ega. Ma'lum bir tilga o'zlashmagan, o'zga til hodisasi sifatida qo'llangan so'z yoki iboralar varvarizm hisoblanadi. Varvarizmlardan odatda, o'zga yerga xos urf-odatlarni tasvirlashda, mahalliy koloritni yaratishda foydalaniladi. Varvarizm- bu tilda mavjud bo'lgan qoidalarni hisobga olmagan holda ishlatiladigan so'zlar yoki atamalar. Binobarin, ular og'zaki va yozma muloqotda o'rinsiz qo'llaniladigan so'zlardir. Ular akademik tayyorgarligi kam bo'lgan ma'ruzachilarda juda keng tarqalgan va so'zlashuv nutqida tez-tez uchraydi.

"Varvarlik" so'zi lotincha barbarismus ("chetellik") dan olingan. Bu atama mintaqaga yangi kelganlarning mahalliy tilda gapirganda boshdan kechirgan qiyinchiliklarini ko'rsatish uchun ishlatilgan. Darhaqiqat, har qanday begona (qadimda ham, bugungi kunda ham) o'xshash so'zlarni osongina chalkashtirib yuborishi mumkin.

Yangi varvarlarni keltirib chiqaradigan turli sabablar mavjud. Ular orasida: bolalik davridagi yomon odat, yomon xulq-atvor, muvaffaqiyatsizliklar, ko'p so'zlarni qurishda xatolik kabilar. Varvarizmlardan foydalanadigan shaxslar o'zlarini aqliy jihatdan ustundek ko'rsatib, o'zlarini madaniyatli, ilmi hisoblaydilar ham, ammo varvar so'zlardan foydalanuvchilar aslida madaniy-ma'rifiy saviyasining pastligi, dunyoqarashining torligidan dalolat beradi. Varvar so'zlardan foydalanish ongli va ongsiz tarzda ro'y beradi, ongli shaklda ro'y

beradigan varvarlar lisoniy shaxs tomonidan qasddan amalga oshiriladi, ya'ni o'zini madaniyatli ko'rsatish uchun foydalanadi va bu jarayon o'sha so'zni gaplarda qayta-qayta qo'llash natijasida lisoniy shaxs ongida tayyor holatda o'zlashtirib olinadi. Ongsiz tarzda o'zlashtiriladigan varvar so'zlar lisoniy shaxs atrofidagi kishilarning nutqidan bevosita o'zlashtirib olinadi, bu jarayon shaxsga bog'liq holda amalga oshmaydi. Quyida misollar ko'ramiz:

Bu matndagi "golosovoy" so'zi ruscha so'z bo'lib, o'zbekcha so'zlar bilan bir matn ichida qo'llanilmoqda, ammo bu so'z bizning tilimizga o'zlashmagan hamda ruscha bu so'zdan so'ng o'zbek tilidagi qo'shimcha gapni umumiy bog'lanishiga yordam beryapti.

"...varvarizmning asosiy belgisi uning ajnabiy so'zligi va o'z tiliga tamoman yotligidir". Shuni ham alohida ta'kidlashimiz kerakki, varvarizmlar qanday yozuvda ifodalanishi yoki qaysi tilga xosligi muhim emas, uning asosiy mazmuni o'zida saqlanib qolganligida. Shuningdek, varvar so'zlar lug'atlar tarkibiga kiritilmagan va ulardan so'zlashuv nutqimizda keng foydalanamiz hamda shaxsiy yozishmalarda ham lisoniy shaxslar ulardan keng foydalanadilar, ammo chetdan kirgan barcha so'zlarni biz varvarizmlar sifatida qabul qilmaymiz, ayrim terminlar borki, ularni o'z holicha o'zlashtirib, lug'atlarimizga kiritamiz, lekin varvar so'zlar so'zlashuv nutqimizda, yozishmalarimizdagina qo'llaniladi, shu bilan birga badiiy adabiyotda ta'sirchanlikni oshirish maqsadida ham ulardan foydalanamiz. Varvarizmlar qo'llangan yozishmalar tahlil qilinayotganda u so'zdagi ma'noga e'tibor qaratilishi lozim, chunki shunday varvar so'zlar borki, ular vulgarizmlarning ma'nosini beradi. Bunday birliklarni tahlil qilishda shu varvar so'zning ma'nosida vulgarlik bo'lsa, u holda shu so'z qaysi tildan o'zlashgan bo'lsa, o'sha tildagi ma'nosi hamda bizning tilimizda qanday ma'no anglatishi kabilar birgalikda tahlil qilinishi lozim bo'ladi. Varvar so'zlar shaxsiy yozishmalarda qo'llanilganda ularning qaysi til birligi ekanligiga qarab ham guruhlariga ajratishimiz mumkin(guruhlariga ajratayotganda bizda eng ko'p iste'molda bo'lgan tillarni oldik):

- ingliz tilidan;
- rus tilidan;
- qardosh tillardan.

Varvarizmlarni shaxsiy yozishmalarda yuqoridagi guruhlar shaklida bo'lib o'rganish yozishma muallifining yoshini aniqlashda juda muhim vazifani bajarishi mumkin, chunki bugungi kunda juda ko'pchilik yoshlar nutqida ingliz tilidan kirib kelgan varvarizmlarni kuzatishimiz mumkin.

Inglizcha varvar soʻzlar: link, copy, chat, ooo my God, sorry, mum, dad, baby kabi bir qancha soʻzlarni koʻrishimiz mumkin.

Rus tilidan kirib kelgan varvar soʻzlar asosan oʻrta yosh va kattalar nutqida, shuningdek, rus tiliga ixtisoslashgan maktab oʻquvchilari nutqida uchrashi mumkin.

Ruscha varvar soʻzlar: мама, папа, девушка, здравствуйте, да, хорошо, зато, уже, где-то, например, как будто, короче, добрый, дьстветилно, как раз, разница, выходной.

Qardosh tillardan kirib kelgan soʻzlar asosan yoshlar nutqida koʻproq uchraydi, aksariyat holatlarda turk, qozoq, qoraqalpoq tillari, baʼzan qirgʻiz tilidagi soʻzlarni ham kuzatishimiz mumkin, ammo deyarli koʻp hollarda turkcha varvar soʻzlar koʻp kuzatiladi. Masalan: kardeş, arkadaş, merhaba kabi soʻzlar.

Shaxsiy yozishmalarda qoʻllanilgan varvar soʻzlar mualliflik ekspertizasi uchun ham muhim rol oʻynaydi, chunki varvar soʻzlarni qaysi tildan oʻzlashganiga qarab muallifning yoki ijrochining yoshini, maʼlumotini, tabaqasini aniqlash mumkin. Shaxsiy yozishmalarda varvar soʻzlarni ekspertik tahlil qilayotganda ekspertizadan oʻtayotgan soʻzning qanday maʼno anglatishi juda muhim, chunki oʻsha soʻz bizning tilimizda qay darajada salbiy yoki ijobiy ottenkaga ega hamda oʻz tilida qanday ottenkalar anglatdi, shuningdek matn ichida kelganda qanday maʼno kasb etadi kabilar ham, albatta, inobatga olinishi lozim. Shaxsiy yozishmalarda chetdan kirgan varvar, ammo maʼnosi vulgar boʻlgan soʻzlarning lugʻati tuzilishi va ularning darajalari konkret koʻrsatilishi tilshunoslarning bugungi kundagi asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi, chunki ekspertlar tahlil jarayonida tuzilgan lugʻatlarga murojaat qilishlariga toʻgʻri keladi, ammo bunday lugʻatlarning yoʻqligi ekspertlar uchun katta izlanish talab qilib oʻsha soʻzning oʻz tilidagi maʼnosini oʻrganishga majbur qiladi va ekspertizaning choʻzilishiga hamda ortiqcha sarf-xarajatlarga sabab boʻladi.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, shaxsiy yozishmalarda adabiy meʼyorga amal qilish va varvar soʻzlardan foydalanmaslik kabi talablarni qoʻya olmaymiz, chunki oʻzbek tilidagi 5 ta uslubdan biri boʻlgan soʻzlashuv uslubida shaxsiy yozishmalar yoziladi hamda ular rasmiy ahamiyatga ega boʻlmagani uchun ham biz ularga chegara qoʻyishga haqqimiz yoʻq, lekin ekspertlar yozishmalardagi muammoli holatlarni oʻrganib, tahlil qilib ekspertik xulosalarni berishi lozim. Shuni ham alohida taʼkidlash lozimki, varvar soʻzlar qoʻllangan har qanday shakldagi shaxsiy yozishmalarni tahlil qilganda gumondor yoki ayblanuvchi, albatta, huquqlari buzilgan shaxsning ismini yozishi yoki uning shaxsiysiga (lechkasiga) yozgan boʻlishi lozim, agar ismi keltirilmagan yoki

shaxsiyga yozmagan bo'lsa, bunday yozishmalar ekspertlar tomonidan o'rganilmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mengliyev B. Tilda imkoniyat va voqelik mushtarakligi. Ma'rifat gazetasi.,2013.15-may.[7,9,10]
2. Abdurayimova D.S. Lingvistik ekspertizada shaxsiy yozishmalarning o'rganilishi va uning ahamiyati // O'zbek milliy va ta'limiy korpuslarini yaratishning nazariy hamda amaliy masalalari" Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya . Vol. 1 №. 01. 2021. –B. 336-339.
3. Лапасов Ж. Бадий матн ва лисоний таҳлили. -Тошкент, Ўқитувчи, 1995.-Б.35.
4. Safarov SH., Toirova G. Nutqning etnosotsiopragmatik tahlil asoslari. O'quv-qo'llanma. Samarqand, 2007.
5. Sayfullayeva R va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Toshkent. 2005. – B. 143.
6. <https://uz.wiktionary.org/wiki/vulgarizm>